

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EKSPRESSIVLIKNI IFODA ETUVCHI SO‘ZLARNING ETIMOLOGIYASI

Mahmudova Zulxumor Rahmatullayevna

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi.

KIRISH

Hozirgi kunda tilshunoslik sohasida ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilib, uning etarlicha ochib berilmagan qirralarini tadqiq etish rivojlanib bormoqda. Erkalash mavzusi ham shu kabi tilshunoslikning echim talab qiluvchi masalalaridan biridir. Mazkur mavzu bo‘yicha ko‘pgina olimlar tadqiqot olib borganlar (X. Samigova, U. Tursunov, A. Muxtorov, X. Abduraxmonov, N. Asqarova, A. M. Xamroev, E. Qilichev va boshqalar). Lekin, ingliz va o‘zbek tillarida erkalashni ifodalovchi so‘zlarning etimologik xususiyatlarining tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot mavjud emas. Erkalash atamasiga tilshunos olimlar turlicha izohlaganlar.

Erkalash bu har bir tilning o‘ziga xos vositalari, shakl–usullari orqali odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, narsa-hodisalarga nisbatan mehribonlik, muhabbat, mayinlik, nazokat, nafis mehr bilan suyish, mehr-shafqat ko‘rsatish, hamdardlik, hamfikrlik va boshqa munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tadqiq etilayotgan tillarda erkalashni ifodalovchi so‘zlarning etimologik xususiyatlarini o‘rganishdir.

F. De Sossyur tashqi va ichki lingvistikani qarama-qarshi qo‘yadi. Uningcha, tashqi va ichki tilshunoslik tilning xalq tarixi, geografik joylashishi bilan bog‘lab tekshirilishi lozimdir [3, 90-91].

Tillarning ichki rivojlanishi ichki va tashqi qonuniyatlarga bo‘ysunadi, ya’ni o‘zaro hamkorlik jarayonida tillar taraqqiyoti ichki qonunlar ta’sirida emas, balki tashqi ta’siriga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishini mazkur mamlakatlarda yashovchi halq va elatning madaniyatini bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta’sir ko‘rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi [1, 157].

Tilni ijtimoiy jihatdan o‘rganishda uning tarixiy bosqichlarining turli davrlarda rivojlanishi nuqtai nazaridan ham taxlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek xalqlarining tarixi hamda chegaradosh xalqlarning ularning tiliga ta’siri o‘z navbatida erkalashni ifoda etilishida ham ahamiyat kasb etishi aniqlandi. SHu fikrga ko‘ra, erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar quyidagicha guruhlandi: chetdan o‘zlashtirilgan so‘z va affikslar orqali yasalgan hamda tarixiylik jihatlariga doir erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar.

Ingliz tiliga zamon taqozosi bilan ispan, italyan, fransuz, ivrit va rus tillaridan o'zlashtirilgan suffikslar ishtirokidagi so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, ispan tilidan -o (kidd-o, buddy-o, daddy-o, boy-o) kabi, italyan tilidan -ola, -ino, -arino, -erino kabi, fransuz tilidan -ese, -ois, -ais, -ville kabilar, ispan amerika variantlari, ya'ni -aro, -eroo, roo, -oo (nigerro, sleeperro) ko'rinishlar hamda ivrit va rus tillaridan o'zlashgan -ink (beachnik, bootnik, autabeatnik) cuffikslari ingliz tili so'zlariga qo'shib ifoda etiladi [2, 85-87].

Tadqiqotimiz natijalari aynan chetdan o'zlashtirilgan so'zlar va suffikslar o'rganilayotgan tillarda erkalash ma'nosini hosil bo'lishida o'z ta'sirini ko'rsatganligini ko'rsatdi. Masalan, Vebster izohli lug'atining ma'lumot berishicha [7], ingliz tiliga fransuz tilidan minion, beau, belle, ispan tilidan caballerro, italyan tilidan nymph, courtesan, muggle, cicibeo, charlatan, Inamorato, inamorata, arab tilidan esa peri, sheik kabi erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar kirib kelganligini ko'rsatadi. Misollar keltirib o'tamiz:

“You,” he informs her softly, “are whatever I say you are. You're mine Sweetheart, you better start getting used to that.”

“No...” she whispers in protest, but she stops struggling against him.

“If I say so, then you're my minion. You could be my mistress, or my acolyte.” [8].

O'zbek tilida esa arab, fors-tojik va rus tillaridan kirib kelgan erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'z va iboralarni ham shu o'rinda kuzatish mumkin. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atidan olingan ma'lumotga ko'ra, o'zbek tiliga fors-tojik tilidan gulandom, gulbadan, devona, dilbar, jigar, jonivor, nigor, mahliqo, pariro'y, arab tilidan esa mahbuba, maxzub, ofatijon, farishta, xumor, javhar, muhabbat, jinni, ma'shuqa, habib kabi so'zlar o'zlashgandir. Rus tilidan esa -ishka, -chik, -ka erkalash va kichraytirish affikslari o'zbek so'zlari va atoqli ismlariga qo'shilgan holda nutqda erkalashni ifodalanishini ham uchramiz. Masalan: Asalishka, asalchik, asalka, Xayrishka, Boburchik, ponchik, Nargizka va boshqalar shular jumlasidandir. E. Qilichev bu borada shunday deydi: “O'zbek tilida, ayniqsa, yoshlar nutqida ba'zan erkalashning ruscha shakllari uchraydi: Nazarchik (Nazar), Lolyachka (Lola), Adik (Adiba) kabi. Ayrim ruscha shakllar erkalash shakllari bilan sinonim tarzda ham ishlatilmoqda:

Dedilar bir yig'inda, kerakmas hech xon demoq,

Xayrixonning o'rniga Xayrichkasi yaxshiroq [5, 21]. YUqorida keltirilgan misollar erkalash ma'nosini shakllanishida ingliz tiliga fransuz, italyan, ispan tillarining hamda o'zbek tiliga esa rus, fors-tojik, arab tillarining ta'siri o'tganligini ko'rsatdi.

Tarixiylik jihatdan esa so'zlar yangi va eskirgan shakllarga bo'linadi. Eskirgan so'zlar guruhiga kiruvchi erkalashni ifodalovchi so'zlar o'rganilayotgan tillarning ikkisida ham uchradi. Masalan, ingliz tilidagi Vebster izohli lug'atlarning ma'lumot berishicha

[7], pumpkin, sweeting, leman, mistress, moppet, brave, chit kabi soʻzlar erkalash maʼnosi eskirgan, arxaik soʻzlar qatoriga kiradi. Oksford Thesaurus lugʼatidagi maʼlumotlarga koʻra esa [6], swain, concubine, doxy, leman, courtesan, cicibeo kabi erkalash maʼnosiga ega soʻzlar ham nutq faoliyatidagi eskirgan soʻzlar xisoblanadi.

Oʻzbek tilining izohli lugʼatida [4] asira, begoyim, begim, boyvuchcha, bibish, buzrukvor, volida, qoqindiq kabi erkalashni ifoda etuvchi soʻzlarini eskirganligini koʻrsatuvchi pometalari boʻlsada, malika, malak, xonzoda kabi soʻzlarning pometalari mavjud emas. Bu soʻzlar tarixda aslida podshohlar oilasiga mansub shaxslarga qarata aytilgan boʻlsa-da, hozirgi kunda esa oʻzbek tilining adabiy tilida suyish va erkalash maʼnolarda mahbublarga nisbatan koʻchma maʼnolarda ifoda etilib kelinadi.

Oʻzbek tilida bu kabi erkalash maʼnosini ifoda etuvchi soʻzlar insonlar tabaqasiga qaratib ifoda etiladi deyish notoʻgʻri, albatta. Bu soʻzlar tilda asl maʼnosida ifoda etilmasada, erkalash, hurmat maʼnolarini saqlab qolgan. Oʻzbek tilining izohli lugʼati qulun soʻzining oʻgʻil bolalarga nisbatan erkalash maʼno ifodalashi haqida maʼlumot beradi, lekin hozirgi kunda bu soʻz muomala doirasidan chiqib ketgan deyishimiz mumkin. Tadqiqotlarimiz natijasiga koʻra, ingliz va oʻzbek tillarida erkalashni ifoda etuvchi soʻzlar etimologik tahlilga koʻra, ijtimoiy hayot taʼsirida chetdan oʻzlashtirilgan soʻzlar va affikslar yordamida oʻz ifodasini topadi. Mazkur soʻzlarning baʼzi qismi vaqt taʼsirida nutq faoliyatidan chetlashib boradi. Demak, tarix va ijtimoiy hayot faoliyati erkalash maʼnosini ifodalovchi soʻzlarning shakllanishida hamda nutqda qoʻllanilishida oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Iriskulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1992, 157 b.
2. Rahimov Gʻ. Britaniya va Amerika slengining sotsiolingvistik xususiyatlari. – / Dis./ Samarqand, 2006, 85-87 betlar.
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik . – Toshkent, 1972, 90-91 betlar.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʼati (2 tomli). – Moskva, “Rus tili”, Toshkent, 1981, 2-qism.
5. Qilichev E. Oʻzbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent, ”Oʻqituvchi”, 1992, 21-bet.
6. Oxford Treasures of English, Oxford University Press, Second Edition, 2004.
7. Merriam Webster’s Collegiate Dictionary, Eleventh Edition, Merriam Webster, Incorporated Springfield, Massachusetts, USA, 2003.
8. Mexx Lucifer’s Sweetheart <http://www.wild-dystopia.net/fiction/luciferssweetheart.html>.